

## TILSHUNOSLIKDA GO'ZALLIK KONSEPTI VA NAVOIY IJODINING LINGVISTIK TADQIQI MASALASI

*Saidrasulova Charos To'liq qizi*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti*

*Jurnalistika fakulteti lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi*

*II- kurs magistri*

*[Saidrasulovacharos@gmail.com](mailto:Saidrasulovacharos@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida “go’zallik” konseptiga oid tadqiqotlar tahlili haqida so’z boradi. Navoiy ijodini o’zbek hamda jahon tilshunoslari tomonidan o’rganilganligi masalasi ham yoritiladi. Navoiy asarlarida go’zallik konsept talqini ochib beriladi.

**Kalit so’zlar:** Alisher Navoiy, lingviculturalogiya, konsept, go’zallik, ilmiy qarashlar.

### KIRISH

Jahon tilshunosligida Alisher Navoiy asarlari tilining fonetik, leksik, semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlariga, shuningdek, mutafakkir ijod namunalari yuzasidan izohli, chastotali, konkordans, qomusiy va mavzuiy lug‘atlar yaratish kabi masalalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Alisher Navoiy asarlarini adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan o’rganishga, Navoiy va Sharq xamsanavislik an’analariga, Alisher Navoiy asarlari tuzilishi, syujeti, obrazlarning poetik xususiyatlari tahliliga, Alisher Navoiy davri muhiti hamda shoir hayoti, uning nazmiy, nasriy, tarixiy, asarlari adabiy-estetik, lingvistik xususiyatlariga qiziqish doimiy ravishda davom etib kelaётgani muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy o’zbek tili va adabiyotimizning sarchashmasi va yuksak cho‘qqisi bo‘lgan hazrat Alisher Navoiy ijodini har tomonlama o’rganish, targ‘ib qilish milliy o‘zligimizni anglash, ma’naviyatimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. “Ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma’rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma’naviy mulkidir”<sup>1</sup>. Adabiyotni tildan ayri bo‘lmaydi. Buyuk san’atkor asarlari tilini o’rganish milliy tilimizning bugungi rivojlanish yo‘llarini va manbalarini to‘g‘ri belgilashga yordam beradi.

Bugungi kun o’zbek tilshunosligida endi rivojlanish yo‘liga kirayotgan yangi sohalaridan biri lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikdir. Konsept ana shu ikki muhim tarmoqdan o‘sib chiqqan ilmiy atama bo‘lib, uning milliy-mental tabiatga

<sup>1</sup> Mirziyev Sh. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonda Islom madaniyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror // Xalq so‘zi. 2017 yil 24 iyun.

egaligi, inson tafakkuri hosilasi o'laroq tatbiq qilinishi bu ikkala fan sohasining ham umumkesishuv nuqtalari bo'lib xizmat qiladi.

Konsept termini tilshunoslikda bir vaqtning o'zida ham zamonaviy, ham tarixiy sanaladi. XX asrning 90 yillarida fanda keng qo'llanila boshlagan ushbu tushuncha lotincha "conceptus" so'zidan olingan bo'lib "tushuncha" degan ma'noni anglatadi. Bu atamaga ilk bor 1928 yil S.Askoldov o'zining "Konsept va so'z" maqolasida to'xtalgan edi. S.Askoldovning qarashicha, konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga ko'ra konseptlarni yaratish va qabul qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi. Konsept tushunchasining tilshunoslar iste'moliga kirishi 80-yillarda ingliz olimlari Cheyf, R.Jakendof, Lakoflarning asarlari bilan bog'liqdir.

Chernishevskiy ta'kidlashicha, hayot — Go'zallikdir, inson hayoti, ehtiyoji va maqsadiga mos tushuvchi narsalar go'zaldir.

Jahon xalqlari madaniyatida go'zallikning mavjud bo'lishi to'g'risida uch xil qarash bor. Bular:

1. Diniy-e'tiqodiy qarashlar;
2. Tabiiy-naturalistik qarashlar;
3. Suniy yoki artifaktik qarashlar.

Ye.S. Kubryakova ta'kidlaganidek, "konsept" termini tafakkur, anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun "soyabon" vazifasini o'taydi.

V.N.Teliyaning ta'rificha, konsept – bilimning hajmini kengaytirishga qaratilgan, biz ob'ekt haqida bilgan, tasavvur qilgan narsa. Demak, u so'zning ma'nosini kengaytiradi, fikrlashga, faraz qilishga imkoniyat yaratadi.

G.G.Slishkinning fikriga ko'ra esa qanchalik konseptni ifodalovchi belgilar potensial bo'lsa, shunchalik konsept qadimiy bo'ladi va o'sha til jamoasida uning qimmatini ortadi. Demak, shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, har qanday ob'ekt konsept bo'la olmaydi.

Bundan tashqari rus tilshunosi L.V.Adonina konsept terminiga bag'ishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan 12 ta ta'rifini keltiradi. Shuningdek, uning ma'lumotlariga ko'ra, konsept termini o'n nuqtai nazardan tasnif qilingan. Masalan, konsept standartlashishiga ko'ra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy konseptlarga; qo'llanilishiga ko'ra ilmiy, badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga ko'ra leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga bo'linadi va hk.

Y.A.Stepanov va S.A.Askoldovning fikri bir biriga juda yaqindir, ular konseptni

“mantiqiy kategoria” sifatida talqin etishadi. Ya’ni Askoldovning fikricha “konsept bu madaniyat elementlaridan birining kishi tafakkurida shakllangan shaklidir, xuddi shu shaklda madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi”.

Yana bir rus tilshunosi V.A.Maslova konsept ma’nosiga ko’p qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan o’ylanadigan, balki ular o’zlari his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnatatsiyani o’z ichig olishini ko’rsatadi va konsept tuzilishida o’zgacha nuetai nazar borligini ta’kidlaydi.

O’zbek tilshunosligida ham “konsept” tushunchasi turli talqinga ega. Masalan, Sh.Safarov “moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushunchaning tug’ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namunakonsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishi”ni ta’kidlaydi.

O’.Q.Yusupov konseptni “tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo’lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya’ni baholashlardir”, deb belgilaydi. Tushuncha va konseptni farqlashda olim quyidagicha fikr bildiradi:” konsept bilan tushunchani ayesbergga o’xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo’lsa, uning suvdan chiqib turganqismi tushunchadir”<sup>2</sup>.

D.U.Ashurovaning qayd etishicha, “konsept deb hamma tushunchalarni ham atash noto’g’ri, balki dunyo va milliy madaniyat sohalarida muhim rol o’ynaydigan tushunchalargina konsept deb atalishi mumkin”<sup>3</sup>.

Konsept termini o’zbek tilshunoslari N.Mahmudov, Sh.Safarov hamda A.E.Mamatov tomonidan batafsil izohlangan. Fikrimizcha, konsept ko’p qirrali va ko’p qatlamli mental tuzilmadir. Shuningdek, u bir vaqtning o’zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etadi. Zero, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar ob’ekti sifatida tavsiflanayotganligi ham shundan dalolat beradi. Shu sababli konseptning tadqiqotchilar tomonidan sub’ektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy konseptlar sifatida tiplarga ajratilganligini yagona mohiyatga turli jihatdan yondashuv sifatida baholash mumkin. Zotan, til tizimi yuqoridagi sifatlarni o’zida jamuljam etgan nihoyatda serqirra hodisalardan biri hisoblanadi<sup>4</sup>.

So’z mulkinging sultoni Nizomuddin Mir Alisher Navoiy (1441—1501). Alloma o’z asarlarida ichki va tashqi go’zallik g’oyasini ilgari suradi. Allomaning “Xamsa”sidagibosh qahramonlar ana shunday komil go’zallik egalari. Umuman, Navoiy ham, boshqa ko’pgina Sharq mutafakkirlari kabi insoniy go’zallikni ichki

<sup>2</sup> Yusupov O’.Q.-Ma’no, tushuncha, konssept va lingvokulturologiya atamaları

<sup>3</sup> Karimov U.N. Konsept tushunchasi va uning badiiy adabiyotdagi mohiyati // O’zMU xabarları, 2017. - №1/5. – B.416-417

<sup>4</sup> Xudayberganova D. O’zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol.fan.dok.

...dissertatsiya. - Toshkent, 2015. – B.11-12.

go‘zallikda, xulqiy go‘zallikda ko‘radi. Navoiy so‘zga alohida e‘tibor beradi, uni ko‘ngil qutisi ichidagi gavhar deb ataydi, hatto falak jismining joni deydi<sup>5</sup> :

Ko‘ngul durji ichra guhar so‘zdurur,  
Bashar gulshanida samar so‘zdurur.  
Erur so‘z falak jismining joni ham

“Majolis un-nafois”, “Me‘zon ul-avzon” asarlarida Navoiy ana shu mohiyatan muqaddas bo‘lgan so‘zdan foydalanish san‘ati haqida fikryuritadi. “Me‘zon ul-avzon” aruz nazariyasi sifatida diqqatga sazovor bo‘lsa, “Majolis un-nafois” tengi kam tazkira sifatida estetikaga aloqadordir<sup>6</sup> .

Buyuk Navoiyning fikriga ko‘ra, badiiy asar faqat go‘zallikni kuylashi bilangina cheklanishi kerak emas, balki o‘zi ham shaklan go‘zal bo‘lishi lozim<sup>7</sup> .

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, O‘zbekiston ilm-fanini Navoiysiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Navoiy dahosining qudrati shundaki, u o‘zining amaliyfaoliyati bilan turli til, lahja va shevalarga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni umumlashtirdi, muayyan me‘yorga soldi va sayqallashtirdi. Shu tariqa, yagona adabiy tilga asos soldi va bu tilni yuqori cho‘qqiga olib chiqdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Askoldov S. A. *Konsept i slovo / Russkaya slovesnost. Ot teorii slovesnostik strukture teksta.* Moskva: Akademiya, 1997
2. Vorobev V.V. *Lingvokulturologiya (teoriya i metody).*—M.: RUDN, 1997. — 331s.
3. 10. *Konseptualnoe prostranstvo yazyka* Tekst.: sb. nauch. tr. Posvyaytsyaes ya yubileyu professora P. P. Boldyreva / pod red. prof. Ye.S. Kubryakovoy. —Tambov: Izdatelstvo Tambovskogo gos. un-ta im. G. R. Derjavina, 2005. — 492 s.
4. Safarov Sh. *Kognitiv tilshunoslik.* – Jizzax: Sangzor, 2006.
5. Alisher Navoiy. *Majolis un-nafois /Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 13-tom.* T.: Fan, 1998.
6. Abdulla Sher. *Tasawuf, G‘azzoliy va go‘zallik falsafasi. “Soglom avlod uchun”* jurnali, 2002. №2
7. Mirziyev Sh. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonda Islom madaniyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror // *Xalq so‘zi.* 2017 yil 24 iyun.

<sup>5</sup> Abdulla Sher, Bahodir Husanov. *Estetika.* Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati ilmiy nashriyoti 2010.

<sup>6</sup> Abdulla Sher. *Tasawuf, G‘azzoliy va go‘zallik falsafasi. “Soglom avlod uchun”* jurnali, 2002. №2

<sup>7</sup> Alisher Navoiy. *Majolis un-nafois /Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 13-tom.* T.: Fan, 1998.